

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufataxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 30-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBЕК

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30





DAVLAT XARIDLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI BYUDJET MABLAG'LARINI TEJASH YO'LLARI

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Toshkent shahar hokimligi huzuridagi "Yunusobod business city"
tadbirkorlik markazini qurish va ekspluatatsiya qilish
Direksiyasi Davlat xaridlari bo'yicha agenti
E-mail: rjaloliddin@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimining amaldagi holati, uning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot davomida davlat xaridlarini tashkil etish jarayonidagi mavjud muammolar, jumladan, boshlang'ich narxni aniqlash mexanizmining murakkabligi, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar ulushining yuqoriligi, tender va eng yaxshi takliflarni tanlash jarayonlarida inson omilining saqlanib qolayotgani, operator platformalari o'rtasidagi integratsiyaning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi hamda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash mexanizmlarining takomillashmaganligi tahlil qilingan. Maqolada rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, ularni O'zbekiston davlat xaridlari tizimiga moslashtirish imkoniyatlari baholangan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, davlat buyurtmachisi, davlat xaridlari tizimi, elektron davlat xaridlari, tender, eng yaxshi takliflarni tanlash, elektron do'kon, auksion, boshlang'ich narx, narx monitoringi, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma.

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы текущее состояние системы государственных закупок Республики Узбекистан, а также её правовые, организационные и экономические основы. В ходе исследования выявлены существующие проблемы в процессе организации государственных закупок, включая сложность механизма определения начальной цены, высокий уровень прямых контрактов, сохранение человеческого фактора при проведении тендеров и отборе наилучших предложений, недостаточную интеграцию между электронными платформами-операторами, а также несовершенство механизмов выявления конфликта интересов. В статье также изучен опыт развитых зарубежных стран и оценены возможности его адаптации к системе государственных закупок Узбекистана.

Ключевые слова: государственные закупки, государственный заказчик, система государственных закупок, электронные государственные закупки, тендер, отбор наилучших предложений, электронный магазин, аукцион, начальная цена, мониторинг цен, прямой контракт.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the current state of the public procurement system in the Republic of Uzbekistan, including its legal, organizational, and economic foundations. The study identifies key challenges in organizing public procurement processes, such as the complexity of determining the initial (starting) price, the high share of direct contracts, the persistence of the human factor in tendering and bid evaluation procedures, insufficient integration among electronic procurement platforms, and the underdeveloped mechanisms for detecting conflicts of interest. The article also examines the experience of developed foreign countries and assesses the possibilities of adapting these practices to the public procurement system of Uzbekistan.

Keywords: public procurement, contracting authority, public procurement system, e-procurement, tender, best bid selection, e-shop, auction, initial price, price monitoring, direct contracting.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar natijasida mamlakat iqtisodiyotining barqaror





o'sish sur'atlari ta'minlanib, ishlab chiqarish hajmi ortib bormoqda hamda iqtisodiyotning drayver tarmoqlarida mahalliy ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada kengaymoqda. Bunday sharoitda davlat buyurtmachilarining tovarlar, ishlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini imkon qadar mahalliy ishlab chiqaruvchilar hisobidan qondirish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat xaridlari nafaqat davlat ehtiyojlarini qondirish vositasi, balki mamlakat iqtisodiyotini rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali mexanizmi ham hisoblanadi[1]. Xususan, davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ustuvorlik berilishi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, aholining bandlik darajasining oshishiga, davlat byudjetiga soliq tushumlarining ko'payishiga hamda import hajmining qisqarishi orqali milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ushbu tizimdagi ishtirokini kengaytirish bugungi kunda davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat xaridlari tizimida alohida huquqiy va tashkiliy mexanizmlar joriy etilgan bo'lib, ularga ma'lum imtiyoz va ustuvorliklar berilgan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, normativ-huquqiy hujjatlarga tez-tez o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi, mahalliy ishlab chiqaruvchi maqomini olish tartib-taomillarining murakkabligi, ayrim ma'muriy to'siqlarning mavjudligi hamda elektron platformalar faoliyatidagi ayrim kamchiliklar ushbu mexanizmlarning samaradorligini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Natijada ayrim tadbirkorlik subyektlari davlat xaridlarida faol ishtirok etish imkoniyatidan to'liq foydalana olmayapti.[2]

So'nggi yillarda davlat xaridlari tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, ochiqlik, shaffoflik va raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom davlat xaridlari sohasidagi asosiy huquqiy asoslarni shakllantirdi. Mazkur hujjatlar davlat xaridlarining yagona tamoyillarini belgilash, raqobatni rivojlantirish, davlat mablag'laridan samarali foydalanish hamda korrupsion xavflarni kamaytirishga qaratilgan muhim huquqiy mexanizmlarni joriy etdi.[3]

Shuningdek, davlat xaridlarini to'liq elektron shaklda amalga oshirish maqsadida zamonaviy raqamli platformalar yaratildi va amaliyotga keng joriy etildi. Jumladan, xarid.uzex.uz, etender.uzex.uz, tender.mc.uz, newcooperation.uz va boshqa elektron platformalar orqali davlat xaridlarining asosiy jarayonlari raqamlashtirildi. Mazkur platformalar davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, inson omilini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlari uchun





teng imkoniyatlar yaratish hamda xarid jarayonlarining tezkorligi va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish maqsadida yangi institutsional va huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni davlat xaridlarida raqobatni yanada rivojlantirish, shaffoflikni oshirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda korrupsion xavflarni kamaytirishga qaratilgan muhim strategik hujjat hisoblanadi. Shuningdek, 2026-yil 4-fevralda tashkil etilgan Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi davlat xaridlari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda xarid jarayonlari samaradorligini oshirishda muhim vakolatli organ sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga qaramasdan, davlat xaridlari tizimida boshlang'ich narxni aniqlash mexanizmining murakkabligi, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar ulushining yuqoriligi, ayrim xarid usullarida inson omilining saqlanib qolayotgani, operator platformalari o'rtasidagi integratsiyaning yetarli emasligi hamda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash tizimining to'liq avtomatlashtirilmaganligi kabi muammolar mavjud. Mazkur holatlar davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda xalqaro ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.[4]

Shu munosabat bilan davlat xaridlari tizimini kompleks tahlil qilish, undagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat xaridlari tizimini samarali tashkil etish, uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda korrupsion xavflarni kamaytirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Davlat xaridlari bugungi kunda nafaqat davlat ehtiyojlarini qondirish vositasi, balki iqtisodiyotni tartibga solish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim instrumenti sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli mazkur soha bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar davlat xaridlari tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

Davlat xaridlari sohasidagi yetakchi xorijiy olimlardan biri Sue Arrowsmith ushbu yo'nalishda fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning "The Law of Public and Utilities Procurement" nomli asarida davlat xaridlarining huquqiy asoslari, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari, raqobat muhitini rivojlantirish





mexanizmlari hamda davlat xaridlarining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Olim davlat xaridlari tizimi davlat mablag'laridan samarali foydalanish bilan bir qatorda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ijtimoiy maqsadlarga erishish va bozor iqtisodiyoti tamoyillarini mustahkamlashda muhim vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.[6]

Davlat xaridlarini isloh qilish masalalari bo'yicha taniqli mutaxassislardan biri Robert Hunja o'zining "Obstacles to Public Procurement Reform in Developing Countries" nomli ilmiy ishida rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xaridlarini isloh qilish jarayonida uchraydigan asosiy muammolarni tahlil qilgan. Jumladan, u davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlash, hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda raqobatni rivojlantirish orqali davlat byudjeti mablag'laridan yanada samarali foydalanish mumkinligini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, davlat xaridlari tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil ekanligini ta'kidlagan. Yana bir mashhur tadqiqotchi Mihály Fazekas davlat xaridlarida ma'lumotlar tahlili, korrupsion xavflarni aniqlash va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning "Improving Public Procurement Outcomes" nomli asarida davlat xaridlari hukumat va jamiyat o'rtasidagi muhim iqtisodiy bog'lovchi mexanizm sifatida baholanib, mazkur tizimni samarali tashkil etish orqali davlat xizmatlari sifatini oshirish, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda korrupsion holatlarni kamaytirish mumkinligi atroflicha yoritilgan. Olim, shuningdek, davlat xaridlarida raqamli texnologiyalar va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qo'llashning afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.[7]

Davlat xaridlari sohasida mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, iqtisodchi olim U. O'roqov o'zining "Byudjet va korporativ buyurtmachilarning xaridlari" nomli asarida davlat buyurtmachilarining xaridlarni tashkil etish tartibi, xarid usullari, davlat xaridlarining huquqiy asoslari hamda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish masalalarini yoritgan. Mazkur asar O'zbekistonda davlat xaridlari tizimining amaliy jihatlarini o'rganishda muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi.[8]

Professor E. Shodmonov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda davlat xaridlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, xarid jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, davlat moliyaviy resurslarini boshqarish hamda davlat xaridlari mexanizmlarini rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Olimning ilmiy ishlari davlat xaridlarini boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan. Shuningdek, iqtisodchi olim S. Turobov O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini milliy amaliyotga tatbiq etish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda davlat xaridlari orqali mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etgan. Uning ilmiy





izlanishlari davlat xaridlari tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish bo'yicha muhim ilmiy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Yuqorida qayd etilgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlarini samarali tashkil etish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish, korrupsion xavflarni kamaytirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, xarid jarayonlarini avtomatlashtirish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilmoqda.[9]

Biroq olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida davlat xaridlarining boshlang'ich narxini shakllantirish mexanizmi, operator platformalari o'rtasidagi integratsiya, manfaatlar to'qnashuvini avtomatik aniqlash, sun'iy intellektni tender jarayonlariga keng joriy etish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari hali ham chuqur ilmiy tadqiq etilishi lozim bo'lgan dolzarb yo'nalishlar hisoblanadi. Mazkur maqola aynan ushbu masalalarni kompleks tahlil qilish va ularning yechimiga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv (System Approach), institutsional iqtisodiyot nazariyasi (Institutional Economics), yangi davlat boshqaruvi (New Public Management), qiymatga asoslangan davlat xaridlari (Value for Money), shuningdek iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullar tashkil etadi.[10]

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizimli tahlil davlat xaridlarini o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan yagona boshqaruv tizimi sifatida ko'rib chiqadi. Har bir bosqich keyingi bosqichning natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat xaridlari tizimi xaridlarni rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirish, shartnoma tuzish va bajarish hamda davlat xaridlari monitoringi qismlaridan iborat. Hozirgi kunda davlat buyurtmachilari uchun davlat xaridlarini rejalashtirish bosqichida boshlang'ich narxni aniqlash eng dolzarb va murakkab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonunining 33-moddasiga muvofiq, davlat buyurtmachisi xarid qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash maqsadida ochiq axborot manbalari yoki boshqa ishonchli manbalardagi ma'lumotlardan foydalanishi belgilangan. Mazkur talab davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, boshlang'ich narxni bozor kon'yunkturasiga mos ravishda shakllantirish hamda davlat mablag'laridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Biroq amaliyotda ushbu talabni to'liq va





samarali bajarishga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjud. Avvalo, O'zbekiston sharoitida tovarlar, ishlar va xizmatlarning amaldagi bozor narxlari to'g'risidagi ishonchli, muntazam yangilanib boriladigan va barcha foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan axborot manbalari yetarli darajada shakllanmagan. Mavjud ma'lumotlar turli platformalar va axborot resurslarida tarqoq holda joylashganligi sababli davlat buyurtmachilari narxlarni solishtirish va tahlil qilish uchun ko'p vaqt hamda mehnat sarflashiga to'g'ri kelmoqda.[11] Shuningdek, narx o'rganish jarayonining amaldagi mexanizmi ko'p bosqichli va murakkabligi bilan ajralib turadi. Tijorat takliflarini yig'ish, ularning haqqoniyligini tekshirish hamda bozor narxlari bilan taqqoslash jarayonlari asosan qo'lda amalga oshirilayotgani inson omili ta'sirini kuchaytiradi va ayrim hollarda subyektiv yondashuvlarga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, davlat xaridlari ishtirokchilarining yagona elektron platformada jamlanmaganligi ham narxlar bo'yicha to'liq va xolis ma'lumot olish imkoniyatini cheklamoqda. Natijada boshlang'ich narxni aniqlash jarayoni murakkablashib, xaridlarni rejalashtirish muddatlari uzaymoqda hamda davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holatlar davlat xaridlarida boshlang'ich narxni shakllantirish mexanizmini takomillashtirish, ishonchli narx ma'lumotlari bazasini yaratish va narx o'rganish jarayonini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida soddalashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, Institutsional iqtisodiyot davlat xaridlari samaradorligini faqat narx bilan emas, balki institutlar sifati bilan ham izohlaydi. Institutlar qanchalik mukammal bo'lsa, davlat xaridlarining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.[12]

1-jadval

Davlat xaridlarida samaradorlikni oshirish omillari va ularning iqtisodiy ta'siri

№	Samaradorlik omili	Tavsifi	Byudjet tejashga ta'siri
1	Raqamli (elektron) xarid tizimlari	Xarid jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish	Xarajatlarni 10–20% gacha qisqartiradi
2	Ochiqlik va shaffoflik	Tender ma'lumotlarini ochiq e'lon qilish	Korrupsiyani kamaytiradi, ortiqcha xarajatlar oldini oladi
3	Raqobat muhitini kengaytirish	Ko'proq yetkazib beruvchilarni jalb qilish	Narxlarning pasayishiga olib keladi
4	Markazlashtirilgan xaridlar	Yirik hajmda birlashtirilgan xaridlar	Masshtab iqtisodi orqali tejash
5	Standartlashtirish	Mahsulot va xizmatlar uchun yagona talablar	Ortiqcha va keraksiz xaridlarni kamaytiradi
6	Monitoring va audit	Xarid jarayonlarini doimiy nazorat qilish	Noqonuniy xarajatlarning oldini oladi
7	Malakali kadrlar	Xarid mutaxassislarini tayyorlash	Qaror qabul qilish sifatini oshiradi

Hozirgi kunda davlat xaridlari tizimida raqobat muhitini eng ko'p cheklayotgan omillardan biri davlat xaridlarini to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish orqali amalga oshirish amaliyoti hisoblanadi. Davlat xaridlarining asosiy





tamoyillaridan biri ochiq raqobatni ta'minlash va barcha tadbirkorlik subyektlari uchun teng imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'lsa-da, ayrim hollarda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar qo'llanilishi ushbu tamoyillarning to'liq amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2-jadval

Davlat xaridlarida tejash mexanizmlari va ularning samaradorligi

№	Tejash mexanizmi	Amalga oshirish usuli	Kutilayotgan natija
1	Elektron tender (e-procurement)	Onlayn platformalar orqali savdolar o'tkazish	Shaffoflik va tezlik oshadi
2	Eng yaxshi narx/taklifni tanlash	Narx va sifatni birgalikda baholash	Optimal xarajatlar
3	Uzoq muddatli shartnomalar	Strategik yetkazib beruvchilar bilan kelishuv	Narx barqarorligi
4	Bozor tahlili	Xarid oldidan narx monitoringi	Sun'iy oshirilgan narxlar oldini olish
5	Xaridlarni rejalashtirish	Yillik xarid rejalarini ishlab chiqish	Keraksiz xaridlar kamayadi
6	Anti-korrupsiya choralar	Ichki nazorat va audit tizimlari	Mablag'larning maqsadli sarflanishi
7	Innovatsion yondashuvlar	Raqamli texnologiyalar va AI qo'llash	Samaradorlik sezilarli oshadi

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonuniga muvofiq, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar qonunchilikda belgilangan alohida holatlarda qo'llaniladi. Xususan, mazkur Qonunning 71-moddasi ikkinchi qismida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ayrim tovarlar, ishlar va xizmatlarni to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali xarid qilish mumkinligi nazarda tutilgan. Biroq amaliyotda ushbu norma keng qo'llanilishi natijasida ayrim davlat xaridlari raqobatli xarid usullarini chetlab o'tgan holda amalga oshirilmoqda. Natijada ko'plab tadbirkorlik subyektlari, ayniqsa kichik va o'rta biznes vakillari, davlat xaridlarida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolmoqda.[13] Bu esa bozorda sog'lom raqobatning rivojlanishini cheklash, davlat buyurtmalarining tor doiradagi yetkazib beruvchilar o'rtasida jamlanishi hamda yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat xaridlari bozoriga kirishini murakkablashtirish xavfini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, raqobatli savdolar o'tkazilmagani sababli narxlarning bozor tamoyillari asosida shakllanishi to'liq ta'minlanmaydi. Buning oqibatida davlat buyurtmachisi eng maqbul narx va sifat nisbatiga ega taklifni tanlash imkoniyatini yo'qotishi, davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligi pasayishi hamda xarid jarayonlarining shaffofligi va hisobdorligiga nisbatan jamoatchilik ishonchi susayishi mumkin. Shu sababli to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni qo'llash asoslarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, ularni faqat istisno tariqasidagi zarur holatlar bilan cheklash hamda imkon qadar raqobatli xarid usullarini keng qo'llash davlat xaridlari tizimining samaradorligi, shaffofligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, davlat xaridlarini amalga oshirishning elektron do'kon va auksion kabi usullari deyarli to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, ushbu xarid turlarida xarid jarayonlari avtomatlashtirilgan algoritmlar asosida amalga oshiriladi.





Natijada inson omili sezilarli darajada kamaygan, xarid jarayonlarining tezkorligi, shaffofligi va xolisligi ta'minlangan. Biroq davlat xaridlari tizimida eng katta moliyaviy mablag'lar aylanadigan eng yaxshi takliflarni tanlash va tender usullarida inson omili hanuzgacha muhim o'rin tutmoqda. Mazkur xarid usullarida ishtirokchilarning malakaviy hujjatlarini ko'rib chiqish, texnik va moliyaviy takliflarni baholash hamda g'olibni aniqlash jarayonlarining ayrim bosqichlari davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshirilishi sababli subyektiv yondashuvlar yuzaga kelishi ehtimoli saqlanib qolmoqda. Bu esa baholash mezonlarining turlicha talqin qilinishi, inson omili bilan bog'liq xatoliklar hamda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsion xavflarning yuzaga kelishiga sharoit yaratishi mumkin. Shuningdek, mazkur xarid usullarida ishtirokchilarga qo'yiladigan malakaviy talablar, texnik mezonlar va tasdiqlovchi hujjatlar hajmining ko'pligi tadbirkorlik subyektlari uchun davlat xaridlarida ishtirok etish jarayonini murakkablashtirmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari ko'plab hujjatlarni tayyorlash, ularni belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirish hamda baholash mezonlarini to'liq tushunishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Natijada ayrim tadbirkorlar davlat xaridlarida ishtirok etishdan voz kechmoqda yoki hujjatlardagi texnik kamchiliklar sababli tanlovdan chetlashtirilmoqda. Bundan tashqari, xarid komissiyalari tomonidan qo'llaniladigan ayrim baholash mezonlarining yetarli darajada standartlashtirilmaganligi ham xarid natijalarining xolisligi yuzasidan turli e'tirozlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat davlat xaridlarida sog'lom raqobatni rivojlantirish, barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit yaratish hamda davlat mablag'laridan samarali foydalanish tamoyillarining to'liq ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois davlat xaridlarining eng yaxshi takliflarni tanlash va tender usullarini yanada takomillashtirish, baholash mezonlarini maksimal darajada standartlashtirish, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan baholash texnologiyalarini keng joriy etish hamda ishtirokchilar uchun talab va tartib-taomillarni soddalashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.[14]

Hozirgi vaqtda davlat xaridlarining tender va tanlov usullarida ishtirokchilarning affillanganlik holatlari tegishli davlat organlarining axborot tizimlari, jumladan, Adliya organlari ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan elektron tizim orqali avtomatik ravishda aniqlanmoqda. Mazkur mexanizm xarid jarayonlarining shaffofligini ta'minlash hamda o'zaro bog'liq korxonalarining raqobatni cheklovchi ishtirokini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq manfaatlar to'qnashuvini aniqlash jarayoni hanuzgacha to'liq avtomatlashtirilmagan. Amaldagi tartibga ko'ra, ushbu holatlarni aniqlash va baholash asosan davlat buyurtmachisining o'zi tomonidan hujjatlarni o'rganish, deklaratsiyalarni tahlil qilish hamda mavjud ma'lumotlarni solishtirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa inson omiliga yuqori darajada bog'liqlikni yuzaga keltirib, manfaatlar to'qnashuvi holatlarining o'z vaqtida aniqlanmasligi yoki ayrim holatlarda umuman e'tibordan chetda qolish xavfini oshiradi. Shuningdek, davlat buyurtmachilarining texnik imkoniyatlari, tajribasi





va mavjud ma'lumotlar bazalariga kirish darajasi bir xil emasligi sababli manfaatlar to'qnashuvini aniqlash sifati ham turlicha bo'lishi mumkin. Natijada ayrim xarid jarayonlarida xolislik va adolat tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar yuzaga kelishi, raqobat muhitining buzilishi hamda korrupsion xavflarning ortishiga zamin yaratilishi ehtimoli mavjud. Shu bois manfaatlar to'qnashuvini aniqlash jarayonini ham davlatning tegishli axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan holda avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda real vaqt rejimida monitoring qilish davlat xaridlari tizimining shaffofligi va ishonchliligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston davlat xaridlari tizimida bir nechta operator platformalarining faoliyat yuritishi hamda ular o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tizimning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Garchi operator platformalari davlat xaridlarini elektron shaklda amalga oshirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ularning funksional imkoniyatlari, texnik yechimlari va axborot almashinuvi darajasi bir xil emasligi davlat buyurtmachilari hamda xarid ishtirokchilari uchun qator amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, davlat xaridlari sohasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy o'zgarishlar va yangi funksional imkoniyatlar barcha operator platformalarida bir vaqtning o'zida joriy etilmayapti. Natijada ayrim platformalarda yangi mexanizmlar amaliyotga tatbiq etilgan bo'lsa, boshqa platformalarda ular uzoq muddat davomida mavjud bo'lmay qolmoqda. Masalan, [xt.xarid](#) platformasida elektron do'kon xaridlarida joriy etilgan zahira g'olib mexanizmi [xarid.uzex.uz](#) platformasida hali ham to'liq tatbiq etilmagan. Xuddi shuningdek, [xarid.uzex.uz](#) platformasida moderatsiya jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilayotgan bo'lsa, ushbu imkoniyat [newcooperation.uz](#) platformasida hanuzgacha joriy etilmagan. Bunday nomuvofiqliklar davlat xaridlari tizimining yagona standart asosida ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, operator platformalari tomonidan foydalanuvchilarga texnik xizmat ko'rsatish va murojaatlarni ko'rib chiqish tizimi ham yetarli darajada samarali tashkil etilmagan. Tizimdagi texnik nosozliklar, dasturiy xatolar yoki boshqa muammolar yuzasidan murojaat qilish jarayonining murakkabligi, operatorlar bilan bog'lanish uchun uzoq vaqt kutishga to'g'ri kelishi davlat buyurtmachilari va tadbirkorlik subyektlarining ortiqcha vaqt hamda mehnat sarflashiga sabab bo'lmoqda. Ayrim hollarda esa bu holat davlat xaridlari jarayonlarining kechikishiga yoki qonunchilikda belgilangan muddatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bir nechta operator platformalarining parallel faoliyat yuritishi davlat xaridlari monitoringi va tahlilini ham murakkablashtirmoqda. Davlat buyurtmachilari turli xarid usullaridan foydalanganda ma'lumotlar alohida platformalarda shakllanadi, natijada yagona va to'liq ma'lumotlar bazasini yuritish, statistik tahlil o'tkazish hamda nazorat tadbirlarini amalga oshirish qiyinlashadi. Ma'lumotlarning tarqoqligi davlat xaridlarining samaradorligini baholash, korrupsion xavflarni aniqlash va xarid jarayonlari ustidan kompleks monitoring olib borish imkoniyatlarini ham cheklaydi. Shu bois davlat xaridlari operator platformalari





o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, ularning funksional imkoniyatlarini yagona standart asosida uyg'unlashtirish, normativ-huquqiy o'zgarishlarni barcha platformalarda bir vaqtda joriy etish hamda markazlashgan ma'lumotlar almashinuvi va texnik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish davlat xaridlari tizimining samaradorligi, shaffofligi va foydalanuvchilar uchun qulayligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.[15]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan izlanish va tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat xaridi tizimini to'liq raqamlashtirish orqali ochiqlik va shaffolik darajasini oshirgan holda davlat byudjeti mablag'larini tejash mumkin. Shuningdek davlat xaridlari tizimi normativ hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish orqali raqobat darajasini oshirish va shu orqali xarajatlar tejalishiga erishish mumkin.

Yuqorida o'rganilgan tahlillar asosida takliflar.

1-taklif. Davlat xaridlarida boshlang'ich narxni aniqlashning yagona elektron mexanizmini joriy etish. Davlat xaridlarini rejalashtirish bosqichida boshlang'ich narxni aniqlash mexanizmini takomillashtirish maqsadida narxlarni o'rganish jarayonini yagona elektron platforma orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu platformada davlat buyurtmachilarining tijorat so'rovlari ochiq e'lon qilinishi, yetkazib beruvchilar esa o'z tijorat takliflarini elektron shaklda taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, platforma avvalgi davlat xaridlari natijalari, bozor narxlari va boshqa ishonchli axborot manbalari bilan integratsiyalashtirilishi zarur. Natijada boshlang'ich narx bozor kon'yunkturasiga mos ravishda shakllanadi, narxlarni sun'iy oshirish holatlarining oldi olinadi, davlat mablag'laridan samarali foydalanish ta'minlanadi hamda kichik va o'rta biznes subyektlarining davlat xaridlarida ishtirok etish imkoniyatlari kengayadi.

2-taklif. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlari hajmini qisqartirish. Davlat xaridlarida ochiq raqobat muhitini kengaytirish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish orqali amalga oshiriladigan xaridlarni qo'llash asoslarini qayta ko'rib chiqish hamda ularni faqat istisno holatlar bilan cheklash maqsadga muvofiqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga ruxsat beruvchi normalarning qo'llanilish amaliyoti muntazam tahlil qilinishi hamda imkon qadar bunday xaridlarni tender va eng yaxshi takliflarni tanlash kabi raqobatli usullar orqali amalga oshirish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv sog'lom raqobatni rivojlantiradi, davlat buyurtmalarida ko'proq tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini ta'minlaydi, tovarlar, ishlar va xizmatlar sifati oshishiga hamda davlat mablag'larining tejalishiga xizmat qiladi.

3-taklif. Tender va eng yaxshi takliflarni tanlash jarayonlarini to'liq raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish. Davlat xaridlarida eng katta moliyaviy mablag'lar aylanadigan tender va eng yaxshi takliflarni tanlash usullarida inson omilini maksimal darajada kamaytirish





maqsadida baholash jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish zarur. Buning uchun ishtirokchilarning malakaviy hujjatlarini tekshirish, baholash mezonlarini qo'llash va g'olibni aniqlash jarayonlarida sun'iy intellekt hamda avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ishtirokchilarga qo'yiladigan malakaviy talablarni qayta ko'rib chiqish, ortiqcha hujjatlar sonini qisqartirish va baholash mezonlarini standartlashtirish lozim. Ushbu chora-tadbirlar inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar va korrupsion xavflarni kamaytiradi, xarid jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini oshiradi hamda tadbirkorlar uchun davlat xaridlarida ishtirok etishni soddalashtiradi.

4-taklif. Davlat xaridlari operator platformalarini yagona standart asosida integratsiyalash. Davlat xaridlari tizimida faoliyat yuritayotgan operator platformalarining funksional imkoniyatlarini yagona standart asosida uyg'unlashtirish hamda ularning o'zaro integratsiyasini kuchaytirish zarur. Bunda normativ-huquqiy o'zgarishlar va yangi funksional imkoniyatlar barcha platformalarda bir vaqtning o'zida joriy etilishi, yagona ma'lumotlar almashinuvi tizimi shakllantirilishi hamda foydalanuvchilar uchun markazlashgan texnik qo'llab-quvvatlash xizmati tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur taklif operator platformalari o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etadi, davlat buyurtmachilari va xarid ishtirokchilarining vaqtini tejaydi, ma'lumotlar bazasining yaxlitligini ta'minlaydi hamda davlat xaridlari monitoringini samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

5-taklif. Manfaatlar to'qnashuvini aniqlashning avtomatlashtirilgan nazorat tizimini yaratish. Davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash jarayonini inson omiliga bog'liq bo'lmagan zamonaviy elektron nazorat tizimi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun davlat xaridlari axborot tizimini Adliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda boshqa vakolatli davlat organlarining axborot bazalari bilan chuqur integratsiyalash, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalaridan foydalangan holda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini real vaqt rejimida avtomatik aniqlash mexanizmini joriy etish lozim. Natijada manfaatlar to'qnashuvi holatlari o'z vaqtida aniqlanadi, inson omili sezilarli darajada kamayadi, korrupsion xavflarning oldi olinadi, xarid jarayonlarining xolisligi va shaffofligi ta'minlanadi hamda davlat xaridlariga nisbatan ishonch yanada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. Benchmarking Public Procurement 2020: Assessing Public Procurement Systems in 180 Economies. – Washington, DC: World Bank, 2020. – 180 p.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Government at a Glance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 220 p.
3. OECD. Public Procurement for Innovation: Good Practices and Strategies. – Paris: OECD Publishing, 2017. – 120 p.





4. OECD. Preventing Corruption in Public Procurement. – Paris: OECD Publishing, 2016. – 100 p.
5. European Commission. Public Procurement Guidance for Practitioners. – Brussels: European Commission, 2018. – 80 p.
6. United Nations Commission on International Trade Law (UNCITRAL). Model Law on Public Procurement. – Vienna: United Nations, 2011. – 150 p.
7. World Bank. Public Procurement Regulatory Systems in Developing Countries. – Washington, DC: World Bank, 2019. – 140 p.
8. K. V. Thai. International Handbook of Public Procurement. – Boca Raton, FL: CRC Press, 2009. – 700 p.
9. P. Bolton. Government Procurement as a Policy Tool in South Africa. – Stellenbosch: Stellenbosch University Press, 2006. – 300 p.
10. G. Piga and K. V. Thai (Eds.). Advancing Public Procurement: Practices, Innovation and Knowledge-Sharing. – Boca Raton, FL: CRC Press, 2007. – 500 p.
11. Transparency International. Curbing Corruption in Public Procurement: A Practical Guide. – Berlin: Transparency International, 2014. – 90 p.
12. Asian Development Bank. Strategic Public Procurement. – Manila: ADB, 2018. – 110 p.
13. World Bank. Digital Procurement Systems and Efficiency Gains. – Washington, DC: World Bank, 2021. – 130 p.
14. OECD. E-Procurement: Making Procurement More Efficient. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 95 p.
15. International Monetary Fund (IMF). Fiscal Transparency and Public Procurement. – Washington, DC: IMF, 2020. – 85 p.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**